

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ASHUROVA ZARINA MUXITDINOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISHNING DIDAKTIK MEXANIZMI**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science
degree in Pedagogy**

Ashurova Zarina Muxitdinovna Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi.....	
Ашурова Зарина Мухитдиновна Дидактический механизм использования STEAM-технологии в дошкольном образовании	
Ashurova Zarina Mukhitdinovna Didactic mechanism for using STEAM technology in preschool education.....	
Эълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of publications.....	

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ASHUROVA ZARINA MUXITDINOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISHNING DIDAKTIK MEXANIZMI**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4675 raqami bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dilova Nargiza Gaybullayevna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
(PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna,
Pedagogika fanlari doktori (DSC), dotsent

Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi,
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahar, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.:(0365)221-29-14; faks: (0365)221-57-27; e-mail:buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahar, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.:(0365)221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi ___ raqamli restr bayonnomasi)

S.Q. Qahhorov,
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

M.F. Atoyeva,
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d.
(PhD), dotsent

H.O. Jo‘rayev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Disseptatsiya mavzusining dolzabligi va zarurati. Jahonda sifatli maktabgacha ta'lim inson kapitalini rivojlantirish, uning ijtimoiy hayotdagi yutuqlarini ta'minlashda muhim investitsiya sifatida belgilanmoqda. Xalqaro tajribalar asosida bolalarning aqliy salohiyati, ma'nan va jismonan sog'lomligini ta'minlaydigan texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash, maktabga tayyorlash darajasini oshirish sifatini yangi bosqichga ko'tarish Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarida ifodalangan innovatsion yondashuvlar, STEAM texnologiyasini qo'llash asosida jarayonni mazmunan takomillashtirish asosiy indikatorlardan biri sifatida qayd etilgan.

Dunyo ta'lim muassasalarida bilimlarni egallash nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv negizida pedagogik muammolar ilmiy tahlil etilishi barobarida maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning metodologik, didaktik, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog'liqlik kabi talablarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu borada Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashini shakllantirishga jiddiy yondashiladi. Xususan, Fransiyada Frene va Vulson metodikasi, Amerikaning International Preschool Currikulum dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda bu kabi jahon miqyosidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish, boshqarish, pedagog kadrlar kompetentligini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va jarayonga tadbiq etish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy – amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar zaminida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishda zamonaviy usullarini joriy etish, bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, xalqaro tajribalarga asoslangan STEAM texnologiyasini qo'llashning didaktik tizimini mazmunan boyitgan holda bolalarni maktabga tayyorlash uslublarini takomillashtirish masalalari yetakchilik qilmoqda. Shu jihatdan, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning rivojlanganlik darajasi, boshlang'ich ta'limga tayyorligini, ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini baholash asosida aniqlash, metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klasterni qo'llash, ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bunda maktabgacha ta'lim subyektlari ehtiyojlarini qondirish, bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, STEAM texnologiyalardan foydalanish asosida

bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini asoslovchi tizimni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-son "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyundagi 487-son "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha Ta'lim va Tarbiyaning Davlat Standartini Tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonlik olimlardan I.N. Kim, Y.R. Maxmutazimova Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM-texnologiyalardan foydalanish mavzusiga oid hamda M.X. Tashibayeva, G.O. Abduraimova STEAM texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llash; Sh.R. Turdiyev, M.F. Jumanazarova, O.A. To'ychiyev, Z.B. Sangirova ta'limning turli sohalarida STEAM texnologiyasini qo'llash bo'yicha tadqiqot olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida STEAM texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha T.V. Volosoves, V.A. Markova, S.A. Averin, V.A. Xachaturova, G. Bogdanovich, Y.V. Karpova, T.S. Kochurina, L.L. Lashkova, Ye.A. Shans, D.N. Shtanko, Y.A. Kuzmina, T.V. Timofeyeva, J.A. Gorbunova, M.Ye. Filimonova, N.M. Sobol, O.I. Roshupkina, O.V. Kireyeva tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorij mamlakatlarida D. An, J. Moon, S. Singer, S. Wahyuningsih, N. Nurjanah, U. Endang, R. Hafidah, A. Pudyaningtyas, M. Syamsuddin, K. Lindeman, M. Jabot, M. Berkley, O. Monkeviciene, H. Clements, J. Sarama, F. Jamil, S. Linder, D. Stegeline, K. DeJarnette, J. Aldemir, H. Kermani, D. Samara maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi mavzusiga oid hamda M. Stohlmann, T. Moore, G. Roehring, J. Martinez, K. Kangas, K. Sormenen, T. Korhonen, H. Gonzalez, J. Kuenzi, A. Juskeviciene, V. Dagiene, V. Dolgopолоvas J. Breiner, S. Harkness, C. Jonson, C. Koehler ta'limning turli sohalarida STEAM texnologiyasini qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Maktabgacha ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish" mavzusi (2020-2023-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi asosida rivojlantiruvchi muhitning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi modullari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kompetensiyalarini shakllantiruvchi o'quv tarbiyaviy faoliyat jarayonlarini inobatga olgan holda takomillashtirish;

maktabgacha ta'limda harakatchan faoliyat darajalarining baholash mezonlarini rivojlantiruvchi materiallar hamda media vositalar asosida takomillashtirish;

loyihalash faoliyatiga qiziqtirishga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar hamda interaktiv loyihalarni qo'llash asosida takomillashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmini takomillashtirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida STEAM texnologiyasiga asoslangan pedagogik jarayonning mazmuni, shakl, usul, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar: anketa, intervyu, suhbat, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilariga STEAM texnologiyasi asosida rivojlantiruvchi muhitga yo'naltirilgan motivatsion, kognitiv, faollikka undovchi interaktiv, integrativ faoliyatga ustuvorlik berishning taktik, strategik, akmeologik, aksiologik didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi modullari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tolerantlik, kommunikativlik, refleksivlik kompetensiyalarini tizimli shakllantiruvchi o'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonlari bolaning qiziqishi, qobiliyati, ehtiyojini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'limda harakatchan faoliyat darajalarining baholash mezonlari bolalarning hamkorlikka asoslangan konstruktor-ijodkorligini tizimli boyitib

borishga doir subekt-subekt munosabatlarini rivojlantiruvchi materiallar hamda media vositalar asosida takomillashtirilgan;

loyihalash faoliyatiga qiziqtirishga yo'naltirilgan kelishuvchanlik, muloqotga kirishish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish tamoyillari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kommunikativ, refleksiv, ekologik, estetik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishchan ta'limiy o'yinlar hamda interaktiv loyihalarni qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi didaktik jarayonlarda STEAM texnologiyalardan foydalanish yordamida pedagoglar faoliyati samaradorligi monitoringini joriy etish bo'yicha "Beasybord", "Aqlli qadam" elektron resurslar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga mo'ljallangan «Bolalar ijodkorligi», «Aqlli guruh» nomli metodik qo'llanmalar yaratilib, amaliyotga tatbiq etilgan;

bolalarda STEAM texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiruvchi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablariga asoslangan o'quv-metodik majmualar, pedagoglar uchun seminar dasturlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlarida STEAM texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashilganligi hamda respublika va chet el olimlari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv - tarbiya jarayoni samaradorligi STEAM texnologiyasiga asoslangan yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarning diqqatini aniq maqsad va vazifaga mo'ljallangan faoliyatga qaratish va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlariga oid ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar hamda uslubiy tavsiyalar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmini yaratishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish yo'llari, shakllari, metodlarini qo'llashga doir tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini boyitish, xalqaro tajribalar asosida maktabgacha ta'lim jarayonida STEAM texnologiyasidan foydalanish orqali tarbiyalanuvchilarda

shakllantiriladigan hayotiy ko'nikmalarni baholash mezonlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmini yaratishga doir tadqiqot ishi natijasi asosida:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilariga STEAM texnologiyasi asosida rivojlantiruvchi muhitga yo'naltirilgan motivatsion, kognitiv, faollikka undovchi interaktiv, integrativ faoliyatga ustuvorlik berishning taktik, strategik, akmeologik, aksiologik didaktik imkoniyatlardan nazariy-amaliy foydalanish holati "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug'i 356/7-099 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bolalarni maktab ta'limiga intellektual jihatdan tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan.

maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi modullari vositasida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida tolerantlik, kommunikativlik, refleksivlik kompetensiyalarini tizimli shakllantiruvchi o'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonlari bolaning qiziqishi, qobiliyati, ehtiyojini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini ta'minlashga oid tavsiyalardan "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligining 2022-yil 2-avgustdagi 257-son buyrug'i, 257-013-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining faoliyatlarni STEAM texnologiyalari asosida tashkil etishda bilim va ehtiyojlarga asoslangan, yuqori samara beruvchi metodlarni tanlash va ularni qo'llashga oid tajribasi oshgan.

loyihalash faoliyatiga qiziqtirishga yo'naltirilgan kelishuvchanlik, muloqotga kirishish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish tamoyillari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kommunikativ, refleksiv, ekologik, estetik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishchan ta'limiy o'yinlar hamda interaktiv loyihalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining dasturida foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-fevraldagi 01-02-39-son ma'lumotnoma). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch va rivojlanish sohasi STEAM texnologiyasi asosida rivojlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi jurnallarida hamda ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g'oya va natijalari bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, 4 ta xalqaro jurnallarda, 5 ta Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda maqola, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika konferensiya materiallarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 8 ta paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning asosiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma‘lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o‘tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta‘limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmining nazariy asoslari” nomli birinchi bobida** STEM va STEAM texnologiyasining ta‘limda vujudga kelishi, maktabgacha ta‘limda mazkur texnologiyasini qo‘llashning zarurati, foydalanishning afzalliklari va tamoyillari haqida bayon etilgan.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilardan I.N. Kim: “Bugungi kunda ta‘limda jahon trendi amaliy o‘qitish xususiyati va texnik, gumanitar fanlar va ijodiyot integratsiyasiga asoslangan STEAM-konsepsiya hisoblanadi. STEAM-ta‘limning asosiy talabi o‘qitish uzluksizligi, shuningdek, ta‘lim oluvchilarning bir-biri va kattalar bilan hamkorlikda ishlashi hisoblanadiki, bu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishning noyob yo‘llarini generatsiyalashni ta‘minlaydi” – deb, STEAM texnologiyasini ta‘riflagan.

Sh.R. Turdiyev o‘z tadqiqotlarida ta‘limda STEAM texnologiyasidan foydalanishni quyidagicha ta‘riflagan: “STEAM fanlarini tashkil etgan fanlarning har biri alohida bilimlar manbaiga ega bo‘lgan bir butun fanlardir. Bu fanlarning kelib chiqish tarixiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bir fanning keskin rivojlanishi natijasida ikkinchi fanning paydo bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib, nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llashda integratsiyalashgan ta‘limdan foydalanish muhim sanaladi. Bunday ta‘limni amalga oshirilishidan beshta fanning integratsiyasi yuzaga keladi”.

M.X. Tashibayeva “STEAM – ta‘lim texnologiyasi ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining o‘qitishning turli zamonaviy usul va shakllarining o‘zaro integratsiyalashuvini ta‘minlaydigan kontekstlar, elektron vositalar, tarqatma hamda tabiiy vositalar yordamida amaliy bilimlarni egallashga qaratilgan jamoaviy, guruhviy va individul shakldagi tajribalarga asoslangan loyihaviy faoliyatidir” – deb, izohlab bergan.

STEAM texnologiyasi Amerika Qo‘shma Shtatlarida dastlab STEM shaklida vujudga kelgan bo‘lib, ta‘limda XX asrning 90-yillarida kirib kelgan.

XX asrning 90-yillarida Amerikaning Michigan shtati universiteti professori Robert Rutbernshteyn bolalarda tadqiqotchilik va olimlikni tarbiyalash yo‘llarini

izlashga oid tadqiqot ishlarini olib borib, natijada inson miyasining o'ng yarim shari kreativ fikrlash va chap yarim shari mantiqiy fikrlash vazifalarini bajaradi degan xulosaga kelgan. Uning fikriga ko'ra, texnik fanlarni yaxshi bilgan barcha ixtirochilar san'atga qiziqishganligi sabab, amerikalik tadqiqotchilar tomonidan STEM texnologiyasiga "Art" ya'ni san'at sohasi ham qo'shilgan.

Amerikalik tadqiqotchilar J. Moon va S.R. Singerlar: "STEAM texnologiyasi bu - o'qitish jarayonida bir vaqtning o'zida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni birga tashkil etib, fanni nihoyatda chuqurlashtirib o'rgatish texnologiyasidir. Mazkur texnologiya maktabgacha ta'lim yoshida bolaning tabiatshunoslik, matematika, axborot texnologiyalari, robototexnika va tajribalar tashkil etishga qiziqishi ortib borishini ta'minlab beradi", - deb ta'rif berganlar.

Indoneziyalik olimlar S. Wahyuningsih, N.E. Nurjanah, U.E. Endang, R. Hafidah, A.R. Pudyaningtyas, M.M. Syamsuddinlar: "STEAM yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda fanlarni kundalik hayot bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatishdan tashqari, bolalarning ijodkorligini ham yuzaga chiqaradi. Ya'ni, STEAM texnologiyasida bolalar berilgan topshiriqni bajarishda bir-biriga bog'liq bir nechta vazifani hal etish orqali o'z ijodkorliklarini namoyon qilishga o'rganadilar. Bunda bola g'oyalarni nafaqat o'ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o'rganadi, o'z faoliyatini mavjud imkoniyatlari doirasida mustaqil hal qilishga o'rganadi", - deb e'tirof etishgan.

Rus olimi D.N. Shtanko: "Zamonaviy bolalar - tezligi va hajmi har kuni ortib borayotgan axborot oqimida yashamoqda. STEAM - bolalar bilan bir muammo ustida ishlab, tanqidiy fikrlab, muammoning yechimini topib, laboratoriyalarda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga undaydigan texnologiyadir. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini qo'llash bolalarimizda ixtirochilik va yetakchilik sifatlarini tarkib toptirib, ularni olimlar kabi izlanishga, texnologlar kabi modellashtirishga, muhandislar kabi dizayn yaratishga tayyorlab boradi", - deya STEAM texnologiyasini ta'riflagan.

Yuqorida pedagog olimlarning STEAM texnologiyasiga bergan ta'riflari va qarashlarini o'rganib, tahlil qilish natijasi asosida mazkur texnologiyaga tavsiya qilgan tamoyillar, usullar, baholash mezonlarini integratsiyalash orqali o'zimizning xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashgan sharqona mualliflik ta'rifini berishni lozim topdik.


Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi bu – bolalarning har tomonlama intellektual bilimlarni egallashni ta'minlovchi, tayanch va rivojlanish sohasiga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi turli faoliyatlar mazmunini nosatandart usullar integratsiyasi asosida amaliy ixtirochilik faoliyatini bajarishga yo'naltirilgan, milliy qadriyatlarlarga asoslangan holda tadqiqotchi- "olim bola"ni hayotga tarbiyalovchi texnologiyadir.

STEAM - tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish va o'rgatish usuli bo'lib, ushbu texnologiya an'anaviy ta'limdan farqli ravishda bilimlarni o'zlashtirish jarayonini alohida emas, balki o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlashga xizmat qiladi.

STEAM texnologiyasining faoliyatlar jarayonida “Science” - tabiiy fanlar, technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art - san’at, Math-matematika fanlari integratsiyalashadi.

STEAM texnologiyasini maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida qo’llash 2012-yildan boshlab Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Izroil, Rossiyada jadallik bilan rivojlandi. Ushbu texnologiya asosida ta’lim berish ko‘plab rivojlangan davlatlardagi o‘qitishning milliy tizimiga kiritildi va maktabgacha ta’lim sohasida STEAM texnologiyasini qo’llash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi.

Ushbu dasturlarda STEAM texnologiyasining tamoyillari o‘z aksini topgan. Mazkur tamoyillar tarbiyalanuvchilarning yosh davriga xos xususiyatlarini inobatga olish, har bir bolarining kelib chiqishi, dini, irqidan qat’iy nazar, uning shaxsini hurmat qilish, amaliy mashg‘ulotlarda hamkorlikda ishlash jarayonida insonparvarlik xislatlarini tarbiyalash, faoliyatlarni o‘yin asosida tashkil etishni qamrab olgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi tamoyillari

Yuqoridagi rasmda berilgan gender tenglik, tolerantlik, milliy qadriyatlarga asoslanish, empatiya tamoyillari mualliflik tamoyillari bo‘lib, faoliyatlarni tashkil etish jarayonida modullarda ishlash jarayonida qiz va o‘g‘il tarbiyalanuvchilarining imkoiyatlari tengligini inobatga olish, bir-birlarining his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalariga nisbatan toqatli bo‘lish, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish, o‘zaro hamkorlikda ishlash jarayonida o‘rtog‘ini chuqur tushunish va rahmshafqat qilishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi modullari bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyatlarni innovatsion ta’lim yondashuvlari asosida, integrativ tarzda tashkil etish natijasida tarbiyalanuvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashning shakllanish jarayoni ham tashqi, ham ichki rag‘bat asosida ijobiy ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur nostandart jarayonda tarbiyachi – bilimlarni shakllantirish, tarbiyalanuvchi – bilimlarni egallashning aniq maqsadiga qaratilgan samarali faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasiga asoslangan muhitda ta’lim ishtirokchilari: “tarbiyachi-tarbiyalanuvchi”lar faoliyatiga alohida e’tibor beriladi (1-jadvalga qarang).

Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasiga asoslangan muhitda ta’lim ishtirokchilarining faoliyati

STEAM texnologiyasiga asoslangan muhitda tarbiyachi faoliyati	STEAM texnologiyasiga asoslangan muhitda tarbiyalanuvchi faoliyati
Tarbiyalanuvchilarda narsa-hodisalarni bilishga qiziqishini hosil qilish, individual hamda jamoaviy xulosa chiqarishga o’rgatish	Narsa va hodisalarni bilishga ijobiy motivatsiyani hosil qilish bo’yicha shaxsiy faoliyatning namoyon bo’lishi
Doimiy ravishda o’z bilim, ko’nikma va malakalarini mustahkamlash, pedagogik mahorat hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirib borish	Egallangan bilimlarni mustahkamlash va yangi bilimlarni idrok etish, o’zaro hamkorlikda faoliyatlar jarayonida yangi axborotlarga ega bo’lish
Tarbiyalanuvchilar bilan “subyekt-subyekt” munosabatlarini o’rnatish orqali ularga yangi bilimlar berish hamda ularda hayotiy ko’nikmalarni shakllantirishga erishish	Mashg’ulotlar jarayonida muammolarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, tizimlashtirish va yechish yo’llarini izlashga harakat qilish
Tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya olish va bilimlarni egallash jarayonlarini boshqarish;	Ijodiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi qonuniyatlarni bilish
Mustaqil fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi qonuniyatlarni bilish jarayonini boshqarish	Ijodiy, jamoaviy fikrlash ko’nikma va malakalarini egallash, ularni faoliyat jarayonida qo’llash
Evristik va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish	Yuzaga keluvchi muammolarni mustaqil hal etish bo’yicha amaliy faoliyat olib borish
STEAM texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonida egallanishi zarur bo’lgan ko’nikmalarni nazorat qilish va keyingi rivojini taxmin etish	O’z faoliyatini tahlil qilish, o’z-o’zini baholash, o’z ustida ishlash

Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasidagi demokratik munosabatlar, faoliyatlar sifatini ta’minlovchi o’quv-uslubiy majmualar bilan ta’minlanganligi, guruh xonasining moddiy-texnik ta’minoti; faoliyatlar jarayonida hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish; tarbiyalanuvchilarda erkin tanlov va o’z fikrini himoya qilish ko’nikmasini shakllantirish; tarbiyachining empatiyaga moyilligi, pedagogik faoliyati kabi didaktik omillari maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik ko’nikmalarini egallash jarayonida tarbiyachi – tarbiyalanuvchilar munosabatini shakllantirib berishni ta’minlaydi.

Ushbu dasturda STEAM texnologiyasi Fridrix Frebelning didaktik tizimi moduli, Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o’tkazish moduli, LEGO - qurilish, konstruksiyalash – moduli, Matematik rivojlanish va intellektual qobiliyatlar ta’lim moduli, Robototexnika – moduli, “Multistudiya” modullariga bo’linadi. STEAM modullarning har birining o’ziga xos maqsad va vazifasi, didaktik imkoniyatlari hamda qo’llanilish texnologiyasi mavjud (2-rasmga qarang).

Fridrix Frebelning didaktik moduli

- maktabgacha yoshdagi bolalarga san'atni, konstruktorlashni, matematikani, tanqidiy fikrlashni, mustaqil fikrlashni o'rgatadi

Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish moduli

- maktabgacha yoshdagi bolalarga davom etayotgan hodisalar mantig'ini o'rganish, tabiat hodisalarining o'zaro bog'liqligini tushunish, dunyoni muntazam ravishda o'rganish, tabiatda uchraydigan predmetlarning xususiyatlarini, ularning bir – biri bilan o'zaro ta'sirga kirishishini o'rgatadi

Lego-qurilish, konstruksiyalash moduli

- maktabgacha yoshdagi bolalarga fazoda fikrlashni, eksperimental faoliyatda ixtiro qilishni, tadqiqotchilik, konstruktorlashni o'rgatadi

Matematik rivojlanish moduli

- maktabgacha yoshdagi bolalarning fazoda fikrlash, matematik bilimlarni amaliy o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi

Robototexnika moduli

- maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik, muhandisdek fikrlash uslubi, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyati, jamoada ishlash ko'nikmalari (kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya zamirida)ni rivojlantiradi.

Multstudiya moduli


- maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik did, tanqidiy fikrlash, fazoda fikrlash ko'nikmalarni rivojlantiradi

2-rasm Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi modullari va ularning didaktik imkoniyatlari

STEAM modullari yagona laboratoriyaga birlashadi. Amaliy mashg'ulotlar mazkur modullarda tashkil etilib, tarbiyalanuvchilarda olingan bilimni darhol amalda qo'llay olish imkoniyati mavjud bo'ladi. Har bir modulda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda, mustaqil, erkin tajribalarga asoslanib, o'zi ko'rib, his etib, fikrlab, idrok etib bajarishiga imkon beradigan integratsiyalashgan faoliyat tashkil etiladi. Tarbiyalanuvchilarda STEAM ko'nikmalari shakllangach, bolaning borliq, bizni o'rab turgan dunyo bilan intellektual xarakterga ega bo'lgan bilimlar jamlanmasiga ega bo'ladilar.

Dissertatsiyaning “Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmining metodik asoslari” nomli ikkinchi bobida maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi doirasida integratsiyalashgan fanlar asosida modullarda faoliyatlarni tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi asosida rivojlantiruvchi innovatsion muhitni yaratish hamda faoliyatlar jarayonida STEAM texnologiyasining modullarida faoliyatlarni bosqichma – bosqich tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'limida STEAM texnologiyasi asosida tashkil etiladigan faoliyatlar bolaning qobiliyati va iqtidoridan kelib chiqib quyi, o'rta va yuqori darajalarga bo'lingan holda tanlanib, qo'llaniladi (3-rasmga qarang).



3-rasm. STEAM texnologiyasini qo'llash darajalari


STEAM texnologiyasi asosida faoliyatlarni tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga axborotlarni jadal tarzda taqdim qilish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, izlanuvchanlik va ixtirochilikka asoslangan ijodiy muhit yaratish, dialogdan samarali foydalanish, bolalarni turli didaktik va rolli o'yinlarga jalb qilish kabilar samarali natija berishni ta'minlaydigan innovatsion muhit yaratishga erishilganligi aniqlandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

STEAM texnologiyasi asosida modullar bo'yicha tashkil etiladigan faoliyatlarda yaratiladigan innovatsion muhitning imkoniyatlari

Faoliyat jarayoni Elementlari	Faoliyatlarda yaratiladigan innovatsion muhitning imkoniyatlari
O'qitish muhiti	Norasmiy, samimiy, hamkorlik, o'zaro ishonch ruhida
Rejalashtirish	Tarbiyachi va har bir tarbiyalanuvchi mas'ul
Talablarning qo'yilishi	Tarbiyalanuvchi, ota-ona, tarbiyachi talabi asosida
Masad va vazifalar	Tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari asosida
O'qitish	Davlat talablari, o'quv dasturi bo'yicha tarbiyalanuvchilarning ehtiyoji va imkoniyatlariga muvofiq
O'qitish metodlari	Guruhlar, uchliklar, juftliklarda ishlashga yo'naltiriladi
Baholash, rag'batlantirish	Tarbiyalanuvchining o'zi, do'sti, ekspert tarbiyachi baholaydi

Tadqiqot ishi davomida Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmini takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi didaktik mexanizmining takomillashtirilgan modeli

4-rasmdagi modelda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti asosida STEAM texnologiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch: kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish va rivojlanish sohasi bo'yicha kompetensiyalar: ijtimoiy hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish maqsadi asosida modelning vazifasi, modullari, ta'lim shakllari, metodlari, tamoyillari belgilangan.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarni ilmiy va texnik ijodkorlikka jalb qilish orqali intellektual qobiliyatini rivojlantirish STEAM texnologiyasi modullarining vazifasi bo'lib, ta'lim amaliy mashg'ulot, maxsus kurslar, guruh va yakka tartibda ishlash shaklida va o'yinli tashkil etiladi. STEAMda loyihalash faoliyatiga qiziqtirishga yo'naltirilgan kelishuvchanlik, muloqotga kirishish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish tamoyillari maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida kommunikativ, reflektiv, ekologik, estetik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishchan ta'limiy o'yinlardan foydalaniladi. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi e'tibor markazini tadqiqotchilik faoliyati egallaydi. Maktabga tayyorlov guruh bolalarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy rol tarbiyachiga tegishli bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarni muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlarni mustaqil ravishda olishga undaydigan muammoli vaziyatlarni yaratadi. Bunda ta'lim va tarbiya berishda innovatsion, kompetensiyaviy, integrativ yondashuvlarga asoslaniladi. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida diqqatni faoliyatga qaratish; tanqidiy fikrlash; o'z fikrini mustaqil va aniq bayon eta olish; hamkorlikda ishlay olish; fazoda fikrlash; konstruktorlik faoliyatiga oid ko'nikmalar; tabiatni sevish va undagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini tushunib anglash; estetik didning shakllanganligi; texnik faoliyatga qizish; mantiqiy amallarni tushunish ko'nikmalari vujudga keladi.

Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmining asosini - sifatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning maqsadi, bolada shaxsiy, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan yondashuvlar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlarga asoslangan mazmun, metod, shakl, vosita hamda kafolotlangan natija tashkil etadi.

